Shermatova Yaqutxon Sabirovna

Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti

https://doi.org/10.5281/zenodo.7607790

https://explore.openaire.eu/search/publication?pid=10.5281%2Fzenodo.7607790

KUYISHDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH ASOSLARI

Annotatsiya : Ushbu maqolada inson salomatligi uchun zararli bolgan kuyish darajalari haqida amaliy ishlar olib borilgan hamda kuyishda birinchi yordam korsatish asoslari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar : Yumshoq to'qimalar, epidermis, shish, og'riq, pufakcha, strellangan bog'lam, kompres.

Kuyish, odatda, yumshoq to`qimaning yuqori harorat, kimyoviy moddalar, elektr toki yoki quyosh nurlari ta'siri ostida zararlanishidir.

Kuyishda, dastavval terining ustki qatlami-epidermis zararlanadi. Kuyish kuchayib borsa, terining quyi qatlamlari ham zararlanadi. Kuyish jarayonida teri qoplamining yaxlitligi buziladi, oqibatda zararlangan joyga infektsiya tushishi, suyuqlik yo`qotilishi yoki zararlangan sohaning harorat me'yori (termoregulyatsiya) buzilishi mumkin. Kuyish chuqur ketsa, to`qimaning quyi qatlamlari, nafas sistemasi va ko`z ham zararlanishi mumkin.

Kuyishning qattiq yoki yengilligi haroratga, kuyishga olib kelgan sababga, ta'sir qanchalik uzoq davom etganligiga, badanning qaerida ekanligiga, qanaqa ko`lamda kuyganligiga, kuyish chuqurligiga, jabrlanuvchining yoshiga va uning salomatligining

ahvoliga bog’liq bo`ladi. Odatda, 60 yoshdan oshganlar, 5 yoshdan kichik bolalar hamda surunkali kasallar kuyishga boshqalarga nisbatan ham chidashadi.

Kuyish uni keltirib chiqargan sabablarga hamda badanni qanchalik chuqur zararlantirganligiga ko`ra: birinchi darajali (yuzaki, yengil), ikkinchi darajali (o`rtacha darajada chuqur zararlagan) hamda uchinchi darajali (chuqur zararlagan)ga bo`linadi.

Birinchi darajali kuyishda terining ustki qatlami zararlanadi. Teri qizarib, quruq va og’riqli bo`ladi. Kuygan joy shishishi mumkin. Birinchi darajali kuyish, odatda, chandiq qoldirmay, 5-6 kun ichida tuzalib ketadi.

Ikkinchi darajali kuyishda terining har ikki qatlami — epidermis va derma zararlanadi. Bunga yuqori harorat yoki quyoshning kuchli ta'siri, shuningdek ximiyaviy moddalar sabab bo`ladi. Teri qizarib, pufakchalar bilan qoplanadi. Bu pufakchalar yorilib, ichidan tiniq suyuqlik oqib chiqib, terini ho`llaydi. Kuygan teri dog’li bo`lib ko`rinishi mumkin. Bunday kuyish og’riqli bo`lib, kuygan joy shishib ketadi. Odatda, kuygan joy uch-to`rt haftada, ba'zan chandiq hosil qilib tuzaladi

Uchinchi darajali kuyishda terining ikkala qatlami hamda ancha quyida joylashgan to`qimalar-nervlar, qon tomirlar, yoq, muskul va suyak to`qimalar zararlanadi. Juda yuqori harorat, alanga, shuningdek elektr toki ta'sirida hamda yashin urganda uchinchi darajali kuyish ro`y berishi mumkin.(16.4rasm)

Bunday kuyishda teri ko`mirlanib (qorayib) yoki mumsimon oqarib ko`rinadi. Bu darajada kuyganda og’riq kamroq bo`ladi, chunki teri qatlami nerv uchlari zararlanadi. Keng ko`lamda uchinchi darajali kuyishda jabrlanuvchi suyuqlik yo`qotgani uchun shok holatiga tushib, uning hayoti xavf ostida qolishi mumkin. Shuningdek infektsiya tushish ehtimoli ham bor. Uchinchi darajali kuyish natijasida badanda dag’al chandiqlar paydo bo`lib, ko`pincha yangi teri ko`chirib o`tqazishga to`g’ri keladi.

Kuyishning oldini olish yong'inga qarshi xavfsizlik choralarini ko`rishdan boshlanadi. Buning uchun gugurtni bolalar qo`li yetmaydigan joyda saqlash, bolalarni hech qachon qarovsiz qoldirmaslik, hujrada yong'inda tez alanga olishi mumkin bo`lgan materiallarni saqlamaslik, yashash joyda hech qachon benzin yoki tez alanga oladigan boshqa suyuqliklarni saqlamaslik, ovqat tayyorlayotganda kastryul dastaklari plitadan tashqariga chiqib qolmasligiga e'tibor berish, iloji boricha orqa gorelkalardan foydalanish, moy yoki yog' yonib ketsa, alangani suv bilan o`chirishga urinmaslik, ochiq alanga yaqinida aerozol purkamaslik tavsiya etiladi.

Quyosh teriga zarar yetkazib, kuydirishi mumkin. Quyosh ostida uzoq vaqg bo`lish teri raki (saraton) kasalligini va uning erta qarib qolishini keltirib chiqarishi mumkin. Quyoshdan kuyishni bartaraf etish uchun ertalab soat 10 dan kunduzi soat 3 gacha oftobda bo`lmaslik, quyosh nurlarining haddan tashqari ta'siridan saqlanish uchun tegishlicha kiyinib yurish kerak.

Kuyishda birinchi yordam ko`rsatish

Kuyish sabablarini bartaraf etgandan keyin ham yumshoq to`qima kuyishda davom etib, yanada ko`proq zararlanadi. Kuyish qattiq bo`lmagan holatlarda kuygan joyni sovutish pufakchalar paydo bo`lishining oldini olib, qattiq kuyishda to`qimalarning zararlanishini kamaytiradi.

Jabrlanuvchi his etayotgan og'riqning kuchli-kuchsizligiga qarab kuyish darajasi haqida xulosa chiqarilmaydi. Chunki kuyish oqibati sifatida nerv uchlari zararlangan bo`lishi mumkin. Ko`p hollarda kuygan joyni vrach ko`zdan kechirishi kerak.

Agar kuyish natijasida nafas olish qiyinlashsa, tananing bir necha joyi jarohatlangan bo`lsa, bosh, bo`yin, qo`l panjalari, oyoq kafti yoki jinsiy a'zolar jarohatlangan bo`lsa, bola yoki yoshi ulug' odam jabrlangan bo`lsa, ximiyaviy

moddalardan kelib chiqqan va portlash yoki elektr toki urishi oqibati bo`lsa, tez yordam chaqirish kerak.

Birinchi va ikkinchi darajali kuyishda kuygan joyni suvga tiqib yoki unga suv quyib sovutiladi, biroq suv haddan tashqari sovuq bo`lmasligi kerak. Zararlangan joyni sovutgach, infektsiya tushishi, havo tegishiga yo`l qo`ymaslik hamda og'riqni yengillashtirish uchun toza salfetka o`raladi.

Pufakchalarni yorish mumkin emas, chunki terining butunligi infektsiya tushishidan saqlaydi. Pufakchalar o`zi yorilgan bo`lsa, zararlangan joyni jarohatlangandagi kabi, sovunlab yuvib, sterillangan bog'lam bog'lanadi.

Uchinchi darajali kuyishda tez yordam chaqiriladi va nafas yo`llari yoki o`pka kuyganidan gumon qilinsa, nafas olinishini muntazam kuzatib boriladi. (Nafas yo`llari kuysa, shishib, jabrlanuvchining nafas olishini qiyinlashtirib kuyishi mumkin). Ikkilamchi ko`zdan kechirishda, kuyganlikni ko`rsatuvchi bironta qo`shimcha belgi bor-yo`qligini tekshiriladi. Kuygan joyga qo`llangan sochiq yoki boshqa bironta mato bosiladi. Bu kompress ustiga suv quyib, uni doim sovuq tutib turiladi. Aks holda darrov isib, qurib qoladi. Uchinchi darajali kuyish shok holatiga olib kelishi mumkin. Agar jabrlanuvchi nafas olishda qiynalmayotgan bo`lsa, undan yotib olishini iltimos qilinadi. Kuyishdan jabrlangan odam, odatda, titraydi. Uning tana haroratini bir xilda tutib turish lozim.

Agar kuygan joy katta bo`lsa, butun jarohatlangan joyni birvarakay sovutishga urinmaslik kerak, bu hol jabrlanuvchi tana haroratining umumiy pasayib ketishiga olib kelishi mumkin. Kuygan joyning bir qismini sovutib, qolgan joyiga toza mato yopib qo`yiladi.

Kimyoviy moddalar ta'sirida kuyishda birinchi yordam ko`rsatish

Kimyoviy moddalar ta'sirida kuyish ishlab chiqarishda ham, uy sharoitida ham ro`y berishi mumkin. Bunday kuyish oqartiruvchi moddalar, suv oqib chiqib ketadigan quvurlar, vanna, xojatxonani tozalash vositalari, bo`yoqni yuvib ketkazuvchi moddalar yoki bog'dorchilikda ishlatiladigan ximiyaviy moddalar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin. Kimyoviy modda teriga ta'sir etib turar ekan, kuydirishda davom etaveradi. Shuning uchun bunday modda teriga tushsa, uni darxol bartaraf etish chorasini ko`rish kerak.

Foydalanilgan adabiyorlar

1. "Sanitariya nazorati to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T.: 2006 y., 41-son.

2. "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T.: 2007 y., 40-son.

3. "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. –T.: 2004 y., 25-son.

4. S.M. Ermatova. Hayot faoliyati xavfsizligi (Fuqaro muhofazasi)ni ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish. Uslubiy qo'llanma. Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti. 2012. T. 163 b.

5. U.D.Murodova., S.M.Ermatova. Hayot faoliyati xavfsizligi (Yong'in xavf-sizligi). Uslubiy qo'llanma. T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2015. 46b.

6. С.О.Сафарова, М.Пулатходжаева и др. Медицина чрезвычайных ситуаций. Т.: ТГПУ им. Низами. 2016. 62 с.

7. Glades Road, Boca Raton. Fire safety manual. Florida. 2013.

Elektron ta'limning resurslari

1. www.gov.uz

2. www.ziyonet.uz

3. www.mvd.uz

4. uz.bir.uz

5. www.bezopasnost strani.uz

6. www.terror.bezopasnost.ru

7. www.psixologia tolpi.ru

WORDLY
KNOWLEDGE